

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**“Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitish uslubiyati”
kafedrası**

**5141600- Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi
Maxsus sirtqi bo'lim bitiruvchi kurs talabasi**

Umurova Nasibaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Boshlang'ich sinfdá ona tili va o'qish darslarini qiziqarli
o'yinlar asosida tashkil etish”**

Ilmiy rahbar: o'qit.M.Hazratqulov

Samarqand-2011

REJA:

I.KIRISH.

II. ASOSIY QISM:

1.bob. O'qish darslarini tashkil etish usullari

1.1.Savod o'rgatish jarayoni tahlili.

1.2.Dars jarayonida o'qituvchi mahoratining o'rni

2.bob. Savod o'rgatish mashqlarining asosiy turlari va unda o'yin vositalaridan foydalanish.

2.1.Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yin turlari.

2.2. O'qish darslarida qiziqarli mashg'ulotlardan foydalanish

III. XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O'yinlarning insonni har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday munosabatda bo'lish belgilarini aniq misollar bilan yetkazish; harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilishi, uzoq-yaqin va tevarakatrofda qilinayotgan harakatlarni ko'ra bilishi va hokazolardan iborat» deyiladi DTSning o'quv dasturida.

Darhaqiqat, umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan barcha fanlardan DTS o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi, ammo amaldagi dasturlar bo'yicha tuzilgan o'quv qollanmalarida taqdim qilinayotgan topshiriqlar har doim ham harakatli o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchini ma'naviy-ma'rifiy tomondan o'stirishga mo'ljallanmagan. Shu jihatdan olganda ularni tadqiqot doirasida takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat Umummilliy dasturi» va ta'lim sohasida qabul qilingan bir qator qarorlar umumta'lim maktablari, xususan, boshlang'ich maktab tizimini tubdan yangilash, eng yuqori zamonaviy talablarga javob beradigan, o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish yo'llarini belgilab berdi, Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida « Bolalarimizni qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz bilan tanishtirish kerakligini o'ylab ko'rishimiz zarur! »deya o'qtirgan edilar¹.

Ko'rinadiki, o'qish va o'qitish hunarini milliy lashtirish hamda qiziqtiradigan, qulay va bolani mustaqii fikrlashga o'rgatadigan usul va vositaiarni izlashimiz lozim.

¹Qarang. Prezident I.A. Karimov./1997-yil 29-avgust. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sess.so`z.n.

1-sinfga kelgan o'quvchilar maktab sharoitlariga, uning qat'iy tartib-qoidalariga tezda moslashib keta olmaydilar. Shu bois ularni o'zlari o'ynab yurgan tanish o'yinlar vositasida ilm-fan sirlari tomon qiziqtirish kerak.

Bu borada milliy o'yinlardan foydalanish juda ham samaralidir. Bu o'rinda o'tkaziladigan didaktik o'yinlarni dastur talabiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishini hisobga olish, ularning yangi mavzuga bog'lanishini ham inobatga olmoq lozim. O'yin vositasida o'quvchilar bilimi mustahkamlanganda ularni yosh bo'g'inga beradigan ma'naviy-axloqiy ozuqasini har tomonlama e'tiborga olish — ya'ni, ta'lim-tarbiya birligiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning ob'ekti. Savod o'rgatish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq mashg'ulotlarning yangiligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida dars o'tish jarayoni tadqiqotimizning ob'ektini tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti. Savod o'rgatish darslari o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Savod o'rgatish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifasi: Yuqorida oldimizga qo'ygan maqsadimizdan kelib chiqib:

1. Tadqiqot ishida tanlangan mavzu bo'yicha ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik hamda o'quv adabiyotlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish.
2. Savod o'rgatish mashg'ulotlari o'qish darslariga oid mashg'ulotlari bilan ishlash jarayonini o'rganish va tahlil qilish.
3. Mavzuga oid ilmiy metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulot mazmuni, maqsadi va qurilishini o'rganish hamda qayta takomillashtirish dolzarb nuammo ekanligini aniqlash.
4. Savod o'rgatish darslari o'qish mashg'ulotlariga oid mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini yaratish.

Tadqiqot ishining ilmiy farazi.

- Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulotlar bugungi davr va bugungi kun bolasi nuqtai nazarini hamda uning individual, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish;
- Savod o'rgatish darslarini shakllantirishga oid mashg'ulotlarning izchil tizimi yaratish;
- Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulotlarni takomillashtirishning yangi-yangi usullari o'ylab topish;

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, ilmiy-metodik manbalar.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati. Ushbu tadqiqot ishini bajarish natijasida boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish darslari kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qoraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq o'zgaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashg'ulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga oid mashg'ulotlarini boyitish, maktabda olib boriladigan turli o'quv predmetlarini takomillashtirish hamda ularning bilimini, malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, ikki bob, har bir bobda ikkitadan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.bob. O'qish darslarini tashkil etish usullari


1.1.Savod o'rgatish jarayoni tahlili.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda asosiy davr savod o'rgatish davri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovush va harflarni qay darajada singdirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi taqozo etiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.


Quyida biz savod o'rgatish davrida «Improvizatsiya» va «Klaster» metodlarining turli ko'rinishlaridan namunalar keltirmoqchimiz.

Improvizatsiya

Bu metod «Klaster» metodining aksi bo'lib, turli o'xshash fikrlarni bir fikrga jamlashdan iborat. Masalan, doskaga «anjir» so'zini yozib, qaysi harf bilan boshlanishi so'raladi. Yana «anor», «archa», «arra», «ana» so'zlari ham yoziladi va qaysi harf bilan boshlanishi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar barcha so'zlarni «A» harfi bilan boshlanishini aytadi. O'qituvchi yozilgan so'zlarning barchasini o'rtadagi «A» harfi bilan tutashtiradi yoki «A» atrofiga jamlaydi:




Yoki yana bir namuna:



Bo'g'inlarni ham o'rtağa jamlab, so'z hosil qilish mumkin. Bu ham «Iprovizatsiya» metodi hisoblanadi.

Klaster» metodini savod o'rgatish davrida faqatgina harf, tovush, bo'g'inlar va so'zlar uchun emas, tovush va harflarni o'rgatishda rasmlardan ham tuzsa bo'ladi.

Masalan:



Xullas, savod o'rgatish davrida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning savodxon bo'lishlarida, DTS talablarida qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Savod o'rgatishda topishmoqlar

Savod o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish eng yaxshi mashq turlaridan hisoblanadi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Topishmoq janri xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyat hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Topishmoqlar narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi. Har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va «kim?», «nima?» so'roqlarida yashiringan javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Topishmoqlar mavzulari tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Ba'zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

R. Safarova, M. Inoyatova, M.Shokirova va L.Shermatovalarning 1-sinflar uchun mo'ljallangan «Alifbe» darsligida ham bir qancha topishmoqlar berilgan. Darslikning 41-sahifasidagi «Suyamasang turolmas, sen minmasang yurolmas», 45-sahifasidagi

«Sh»dan boshlanar oti,

Asal kabi sharbati.

Bilsang nomin ayt, Ali?

- Ha, bilaman -

47-sahifasidagi:

Yashil to'ni bolalar,
Makonidir dalalar.
Chirsillaydi tishlasa,
Bo'lar osh bilan yesa.

48-sahifasidagi:

«Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa tashlama».

49-sahifasidagi:

«Boshi taroq, dumi o'roq».
«Men yuraman, u qoladi».

51-sahifasidagi:

«Bir parcha patir – olamga tatir».
«Ichi bo'yoq
Sirti tayoq».

«Usti tosh, o'sti tosh, o'rtasida chandir bosh» kabi topishmoqlar shular jumlasidandir. Bolalarga topishmoqlarning javobini tasavvur qilishlari va topishlari oson bo'lishlari uchun velosiped, shaftoli, turp, kitob, xo'roz, iz, oy, qalam, toshbaqalarni rasmlari ham berilgan. Xullas topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmuni va ifoda shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning fikrlar qobiliyatlarini o'stiradi.

Ayniqsa savod o'rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo'ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo'ladi.

1.2.Dars jarayonida o'qituvchi mahoratining o'rni.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun har bir o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodiylik, mustaqil fikrlay olish, yechimlarning yangi, andozasiz yondashuvlarni talab qiladi. Maktabdagi dars pedagogik ijodkorlikning bosh platsdarmi hisoblanadi. Darsda o'qituvchining asosiy ehtiyoji: uzatish, berish, o'rgatish amalga oshiriladi. O'smoqda bo'lgan yosh avlodga o'z bilim va tajribalarini uzatish jarayonida o'qituvchi o'z ijodkorligini namoyon qiladi.

Dars ishlarida an'anaviy metodika bo'yicha ko'plab kamchiliklar haligacha yo'qolgani yo'q. Masalan, dars o'tish jarayonida ma'nosini anglamay, yod olish elementlari haligacha saqlangan. Ko'pchilik o'qituvchilar hozirgi zamon iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotni yoritib borib, yetilib qolgan muammolarni tahlil qilishga e'tibor berishmaydi, balki o'quvchida materialning eng muhim joylarini yodlab olishni talab etadilar.

Bunday dars berishdan qochish kerak. O'quv jarayonini tashkil etishga yangicha sifat yondashuvi kerak. Shuning uchun maktabdagi formatizmni bartaraf etishga qaratilgan yangi g'oyalar, konstruktiv holatlar pedagogik jamoatchilik tomonidan katta e'tibor bilan kutib olinmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, pedagogik hamkorlik haqida aytish o'rinli. Bunday pedagogik hamkorlikning mualliflari o'qituvchi-novatorlar V. F. Shatalov, E. N. Lisenkova, P. I. Volkov, M. P. Shetinin va boshqalar haqida gapirish mumkin. Pedagogik hamkorlik metodikasiga tayanib ishlansa, ancha yengil bo'ladi. Bu yerda o'qituvchi xotirjam, bolalar ham xotirjam, o'zaro ishonch, ularga yengil, o'qituvchi ham xursand. Quyida o'qituvchi-novatorlarning pedagogik hamkorlikka asoslangan ijodiy laboratoriyalari ishi bilan tanishimiz.

Pedagog-novatorning asosiy g'oyalari.

O'quvchilar bilan munosabat. O'qituvchi oldida o'quvchilarni ta'limning umumiy mehnatiga jalb etishdek muhim vazifa turadi. Pedagogik hamkorlik oldingi pedagogikadan, bolalarni o'qishga tortishda o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi mehnati asosiga qurilgan. O'qituvchilar bilan munosabatda novatorlik yondashuvining mohiyati shundaki, ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi

ta'lim tizimida adekvativ o'zgarishlarni talab etadi. V. I. Juravlevning ta'kidlashicha, hamkorlik pedagogikasi nafaqat munosabatlar, balki bilish operatsiyasining tuzilishini, bilimlarni jamoa bo'lib egallash va mustaqil bo'lib yakka tartibda ishlashni (eng yaxshi sherik bo'lish uchun) ham talab etadi.

Ixtiyoriy ta'lim olish. Hamkorlik pedagogikasining prinsipi o'quvchida qo'rqish hissini yo'qotish, erkin bo'lish, o'ziga ishonch uyg'otish, unda to'laqonli ijodiy ishlashga qobil insonni ko'rish, V. A. Suxomlinskiy so'zi bilan aytganda, muvaffaqiyatdan yuzaga kelgan ko'tarinkilik bo'lsa, o'sha yerda o'qishga qiziqish bo'ladi.

Qiyin maqsad g'oyasi. Tajriba o'tkazuvchi o'qituvchilarning yozishicha, ularning ishlari an'anaviy darsdan shunisi bilan farq qiladiki, ular bolalar bilan hamkorlik g'oyasini quvvatlab turadi, bolalar oldiga ko'proq murakkab maqsadlarni qo'yadi, ularning o'ta murakkabligiga e'tiborni qaratadi va ushbu maqsad albatta amalga oshiriladi, bu o'rinda mavzu yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak. Mazkur holatda o'quvchilarni maqsadning o'zigina emas, balki qiyinchiliklarni engishga bo'lgan qat'iy ishonch ham birlashtiradi.

Tayanch g'oyasi. O'qituvchi-novatorlar predmet-so'z axborotlariga turli-tuman tayanch signallarini kiritadi. Chunki bular xotirani, mantiqni, xayolni, tafakkurni algoritmik ko'rinishlarini - rivojlantirish vositasi hisoblanadi. V. F. Shatalov darsda tayanch signallaridan unumli foydalanadi.

Erkin tanlash g'oyasi. O'quvchilar ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng oddiy yo'li hisoblanadi. Erkin tanlash maktab o'quvchilari shaxsidagi ayrim sifatlar notekis rivojlanishining oldini olish imkoniyatlarini beradi. Erkin tanlash g'oyasiga misol: V. F. Shatalov o'quvchilar ixtiyoriga juda ko'plab misollar beradi va bolalar o'z ixtiyorlari bilan xohlagan misolni tanlab oladi.

S. N. Lisenkovada o'qituvchi doskaga qanday qiyin so'zlar yozishini bolalarning o'zlari tanlaydi. I. P. Volkov o'quvchilarga faqat mavzu beradi, o'quvchilar esa qanday materialdan nima tayyorlash mumkinligini aytadilar.

Ilgarilab ketish g'oyasi. Bu g'oya S. N. Lisenkova, V. F. Shatalov va boshqa o'qituvchilarda yaxshi hal etilgan. An'anaviy tarzda o'qituvchi darsda

o'tgan darsni qaytarib, yangisini bayon etar ekan, u faqat «kechagi» va «bugungi» ni bilar edi. Hozirgi zamon darsida ilg'or o'qituvchilar, masalan, S. N. Lisenkova misolida, darsning ma'lum vaqtini keyinchalik o'qitilgan materialni o'zlashtirishga ajratadi.

Yirik bloklar g'oyasi. Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, agar materiallar yiriklashtirilib, yagona blokka birlashtirilsa, o'quvchiga tushadigan og'irlikni keskin kamaytirish hisobiga o'rganiladigan material hajmini ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Ijodkor novator-o'qituvchilar darslikdagi 3-4 paragrafdagi tekstlarini bitta darsda o'rganishni ma'qul ko'radilar.

Darsga turlicha shakl berish g'oyasi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarda dars o'rganilayotgan predmet shakliga javob beradi. Masalan: V.F. Shatalovning matematika darsida teoremani isbotlay borib, ortiqcha bironta so'z ishlatmaydi. Matematika o'qituvchisining hikoyasi juda aniq bo'lishi kerak. I.P.Volkovning ijodkorlik (mehnat) darsida o'quvchilarning shovqin qilishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilar unga ko'plab savollar bilan murojaat qilishadi. E.N.Ilin badiiy asarni tahlil eta borib, tahlil badiiy shaklda bo'lishiga harakat qiladi.

O'z-o'zini tahlil etish g'oyasi. Ilg'or o'qituvchilar bolalar o'qishining dastlabki davridan boshlab individual va jamoa bo'lib o'z-o'zini tahlil etishga o'rgatib boradi. Sh. A. Amanashvili kichik yoshdagi bolalarni baho berish va muhokama yuritishga o'rgatib boradi. Uning o'quvchilari dars vaqtida o'z o'rtoqlarining ishlarini tekshirib, baholab, bir-birlarining yozma ishlariga taqriz yozishga o'rganib boradilar.

Sinfning intellektual asosi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning sinflarida bilimga bo'lgan intilish, yuqori maqsadlarga erishish doimo hukm suradi. Sinfning umumiy maqsadlari va boyliklariga uning intellektual fondi (asosi) kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar qiyinchiliklarni yengishga, aqliy zo'riqishdan qo'rqqmaslikka, evristik quvonchni ko'ra olishga o'rgatadi.

Shaxsiy yondashuv. Ilg'or o'qituvchilar dars o'tish jarayonida, har bir o'quvchi o'z shaxsini his etib turishiga o'rgatadi, o'qituvchining o'ziga e'tibor berayotganini sezib turadi. Bu, asosan, har bir o'quvchining dars davomida o'z

mehnatiga berilayotgan bahoni olib turishi bilan xarakterlanadi. Har bir o'quvchi o'ziga vazifa tanlaydi. Hech kim undan qobiliyatsiz deb gumonsiramaydi, sinfda hamma har tomonlama himoyalangan.

O'quv jarayonida darsning o'rni

Maktab amaliyoti va pedagogika asosli ravishda tasdiqlaydiki, dars o'qituvchining butun fikr va harakatlari doimo qaytarilib turadigan va aylanib turadigan markaz hisoblanadi. Dars pedagogik jarayon zanjirida shunday halqaki, M. N. Skatkin so'zi bilan aytganda tomchida quyosh aks etganidek, unda barcha tomonlar aks etadi. «Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan». ²

Tarbiyalanuvchi shaxsini yaxlit shakllantirish nuqtai nazaridan har qanday darsning foydali koeffitsientini aniqlash yuzasidan ma'lum bir mezonni topish qiyin.

Dars ta'limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktablarni ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o'quvchilarni o'zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyati davomida 25 mingdan kam bo'lmagan dars beradi. Qaysi o'qituvchi darsning mazmunli va qiziqarli bo'lishini xohlamaydi? Kim mohir o'qituvchi bo'lishni xohlamaydi?

Buning uchun uzoq yil ishlagan o'qituvchi bo'lish yetarli emas. Dars mustaqil va mas'uliyatli ijodiy ish sifatida o'qituvchidan rivojlanuvchi ijodiy pedagogik fikrlashni, pedagogik mahoratni egallashni talab etadi.

Biz bu yerda pedagogika tadqiqotini o'rganish jarayonida aytilgan gaplarni qaytarishni maqsad qilib, qo'ymoqchi emassiz. Faqat hozirgi zamon yetuk darslarining bo'sh darslardan farqini, mohir pedagoglarning tayyorgarlik tizimi va darsni o'tishining asosiy, muhim texnologik tomonlarini ko'rib o'tamiz.

3. Usta o'qituvchining ta'lim vositalari.

² M. N. Skatkin. Sovershenstvovanie protsessa obucheniya. M. 1971. 149 str.

O'qituvchining muvaffaqiyati uning, birinchi navbatda, g'oyaviy, nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Darsga tayyorgarlik shu fan bo'yicha darslik, psixologik-pedagogik va uslubiy xarakterdagi kitoblar o'qishdan, uslubiy jurnallar, qo'shimcha adabiyotlar, gazeta va turli materiallarni o'qishdan iborat bo'lishi kerak. Bibliografik kartochkalar, boshqa o'qituvchilarning konspektlari, rejalari, dars loyihalari, turli tahlillar va boshqa manbalar ham zarur. Shuningdek, yana turli o'quv fanlari, diafilmlar, diapozitiv, texnik vositalardan ham foydalanish muhimdir. Shu mavzu (darsga oid) bo'yicha turli ilmiy manbalardan, qonun va qarorlardan olingan sitatalar, tezislar, fikrlar keltirilsa ham maqsadga muvofiqdir.

Shuni hisobga olish kerakki, barcha o'qituvchilar uchun bir xilda bo'lgan ta'lim vositalari bo'lishi mumkin emas. Uning turli-tumanligi o'qituvchi fanning o'ziga xosligi bilan, uning imkoniyatlari, ehtiyoji, intellektual faolligi, yangilikni his etishi, pedagogik bilimga chanqoqligi va b. bilan belgilanadi.

4. O'rganilayotgan material mazmunining tahlili. Darsning yaratilishi - bu fikrlarning paydo bo'lishidir. U bir nechta elementlardan tashkil topgan. Bulardan eng muhimi davlat programmasi tomonidan belgilab qo'yilgan materialdir. Tajribali o'qituvchilar o'quv programmalarining asosiy yo'nalishini, ularning har bir bo'lagini juda yaxshi biladi. Bunga maqsad, vazifa va shu programma tuzilishi kiradi. Yaxshi o'qituvchini doimo shu mavzuga oid materialni shu vaqt uchun qanday o'tish kerak degan masala qiziqtirib keladi (shu tema bir necha bor oldin o'tilgan bo'lsa ham). Bu esa, bugungi maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirishga qanday ta'sir etadi? Oldingi yildagi darsdan farqli o'laroq bu yilgi darsni, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy holatni, ilmiy yangilik, madaniy sohadagi o'zgarishlarni ifodalash haqida jon kuydiradi. Tajribali o'qituvchilar - kompleks tarzda rejalashtirishni o'ylaydi.

Har bir dars o'zida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni belgilaydi:

- tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ma'lum ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy dunyoqarashlarni shakllantirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa insoniy sifatlarni yuzaga keltirishdan iborat.

- ta'limiy maqsad; o'quv programmalari talablari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

2.bob. Savod o'rgatish mashqlarining asosiy turlari va unda o'yin vositalaridan foydalanish.

2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yin turlari.

Savod o'rgatish juda muhim mas'uliyatli va ayni vaqtda o'quvchining esida bir umr saqlanib qoladigan sharaflı davr hisoblanadi. Keyingi sinflarda beriladigan bilimlar o'quvchi tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilib olinishi ham bevosita yozma va og'zaki nutqiy ko'nikmalarning qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarni o'qitish va ularni hayotga tayorlashda savod o'rgatish mashg'ulotlariga alohida e'tibor beriladi. Har bir tovush –harfning talaffuz qilinishi va yozilishini mukammal o'zlashtirib olishlari uchun hilma- hil mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirish o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantirishga bog'liq. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yinlar o'quvchi imkoniyatlarini to'la ishga solish, har bir tovush va harfning eng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo'llaniladigan grammatik o'yinlar ham xilma-xil bo'lib , o'quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash , o'zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi. 1-sinf bolalariga bilim berish o'yin asosiga qurilsa, samarali natijalarga erishish mumkin. Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik, o'qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil etish, sidirg'ali o'qish, husnixat malakalarini shakllatirish va mustahkamlash uchun yozuv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish ,o'yin shaklida uyushtirish zarur. O'quvchilar bilan grammatik o'yinlar uyushtirilar ekan, ularga barcha o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli yozuvda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'quvchilarni ko'proq jalb qilish kerak. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yin turini tanlashda sinf o'quvchilarning hususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Respublikamiz maktablarida mehnat qilayotgan ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilari birinchi sinf o'quvchilarini

savodga o`rgatish jarayonida foydalanish uchun ko`plab didaktik o`yinlarni ijod qildilar. Ulardan dars jarayonida foydalanib yaxshi natijalarga erishmoqdalar.³

Boshlang`ich sinf o`quvchilari fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo`q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang`ich sinflarda qo`llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o`z navbatida to`g`ri yozishda qo`l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo`g`in va uning turlari, urg`uli va urg`usiz bo`g`inlar, tovushlarning bir-biriga ta`siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o`zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug`diradi. Shu tufayli boshlang`ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o`yinlardan foydalanish qo`l keladi.

“ So`z tuzish “ o`yini .

O`yin savod o`rgatish davrida o`tkaziladi. Bu o`yinlarni bajarish o`quvchilarga tovushning so`z hosil qilishidagi ahamiyatini to`laroq tushunib olish imkonini beradi. O`quvchilar ushbu o`yinda ishtirok etar ekan, so`zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo`lishi katta qiziqish uyg`otadi. O`zlari hosil qilgan yangi so`zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo`ladi. So`z tuzish o`yini savod o`rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma`nolarni bildiradi. So`z tuzish o`yini ham aynan so`zga hilma-hil tovushlarni, bo`g`inlarni qo`shish orqali hosil bo`ladi. Bu o`yinni bajarishda so`zga turli hil usullar bilan tovush qo`shib yangi so`z hosil qiladi.

So`zning boshiga bir tovush qo`shib yangi s o`z hosil qilish o`yini .

Bu o`yinining talabiga asosan o`quvchi ma`lum bir olingan so`zning boshidan bir tovush qo`shib yangi so`z hosil qiladi. Ba`zi undosh bilan boshlangan so`zdan avval unli tovushni qo`shish yoki unli bilan boshlangan so`zdan oldin undosh tovush qo`shish orqali yangi so`z hosil qilinadi.

³ Qarang :Safarova T. va b. Savod o`rgatish darslari,T.” Ma`naviyat” 2003-yil.

Son - o +son

o`lka- yo`lka

ola - lola

ota -bota - nota

ayiq- qayiq

or- bor - tor

o`roq – so`roq

osh - qosh– mosh

Ushbu o`yinda ayrim so`zlarga tovush qo`shish orqali bitta so`z hosil qilish mumkin bo`lsa (son- oson ), ba`zi so`zlardan bir qator so`zlar tuzish mumkin. O`yinni butun sinf bilan ham, o`quvchilar guruhlarida tuzib musobaqa tarzida ham o`tkazish mumkin.

“So`zning oxiriga harf qo`shib yangi so`z hosil qilish” o`yini

O`yinni o`tkazish tartibi so`z tuzish o`yinlari bilan deyarli bir hil. Bunday so`zlarni hosil qilishda ba`zan bir harf bilan ifodalangan so`z yasovchi qo`shimchalar ham ishtirok etadi. Savod o`rgatish davrida ushbu o`yin o`tkazilsa, so`z yasovchi qo`shimchalar haqida ma`lumot berish talab qilinmaydi. O`quvchilar bu davrda so`zning tarkibi va so`z yasash haqida bilimga ega emaslar. Chunki boshlang`ich sinf o`quvchilari ona tilini ko`proq amaliy o`rganishadi. Ana shu davrda hosil qilingan ko`nikmalar keyingi sinflarda so`z tarkibini o`rganishgandan keyin yasovchi qo`shimchalar sifatida o`rganiladi. O`yinni boshlashdan oldin o`qituvchi bir, ikki misol orqali o`yinning tartibini tushuntiradi.

Aziz –Aziza

tog`- tog`a

sayla – sayloy

Nur - nura,

yelka - yelkan

xol-xola

olti -oltin

varaq – varaqa

ot- ota

tol- tola

ko`z –ko`za

ola -olam

Sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linib xattaxta ham shuncha qismga ajratiladi. Har bir guruh topgan so`zini xattaxtaning o`ziga tegishli qismiga yozib boradi. Ko`p so`z topgan guruh g`olib hisoblanadi. O`yinni butun sinf o`quvchilari bilan ham o`tkazish mumkin. Ma`lum vaqtdan keyin o`yin yakunlanadi. Eng ko`p so`z topgan o`quvchi g`olib hisoblanadi va rag`batlantiriladi.

“Soʻzning oʻrtasiga harf qoʻshib yangi soʻz hosil qilish” oʻyini.

Soʻz tuzish oʻyinining bir turi soʻzning oʻrtasiga bir harf qoʻshib yangi soʻz hosil qilish hisoblanadi. Oʻyin koʻpincha ikki boʻgʻinli soʻzlar bilan oʻtkaziladi. Ikki boʻgʻinli soʻzning oʻrtasiga undosh tovush qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilinadi. Ushbu oʻyin oʻquvchilarning ziyrakligini oshiradi. Oʻzbek tili leksikasidagi soʻzlarning maʼno jihatidan farqini anglab oladi. Oʻquvchining soʻz boyligi oshadi. Oʻyin shartini bajarish uchun ixtiyoriy diqqati toʻla ishga tushadi. Oʻyinni boshlashdan oldin oʻqituvchi bir, ikki soʻzni xattaxtaga yozib tushuntirib beradi.

sara - sayra, zira - ziyrak

Oʻyin davomida oʻquvchilar quyidagi soʻzlarni topishlari mumkin.

koʻmak –koʻlmak

qatiq- qattiq

qara- qayra

mashoq- mashshoq

ula - uшла

pila - pilla

tola -toshla

sila - siyla

baroq – bayroq .

ola - olma

nola –Noila

xola - xolva

bota- bolta

tana -tashna

tila –tilla

tara -tarqa

biron - biyron

amal - Akmal

tala– tanla


ona - oyna .

Ushbu oʻyinni boshlangʻich sinflarning yuqori sinflarida hamda 5-7 sinflarda oʻtqazsa boʻladi. Yuqori sinflarda qoʻshimcha topshiriq berish orqali oʻyin murakkablashtiriladi.

“Bir tovushi mendan qolgani sengan” oʻyini

Bu oʻyin ham soʻzning boshiga tovush qoʻshib yangi soʻz hosil qilish oʻyiniga oʻxshaydi. U bolalarning faolligini oshiradi, zehni oʻtkirlaydi. Uni

barcha o`quvchilar ishtirokida o`tkazsa ham, parta qatorlari orasida o`tkazsa bo`ladi. Har bir bo`g`inga qancha so`z topishi kerakligini o`qituvchi belgilaydi. O`yin ohirida faol qatnashgan o`quvchilar va g`olib guruh rag`batlantiriladi.



“Bo`g`inlarning o`rnini almashtirib yangi so`z tuzish” o`yini.

Ushbu o`yin o`quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Bolalar o`yinni juda berilib bajarishadi. O`quvchilar bo`g`inlarini almashtirib yangi so`z hosil qilish o`yini orqali so`zning leksik –semantik ma`nosi ustida kuzatish olib boradi. O`yin ko`proq ikki va undan ortiq bo`g`inli so`zlardagi bo`g`inlarning o`rnini almashtirish orqali olib boriladi. Bunday so`zlar ko`proq qo`shma otlar mavzusi bilan bog`liq bo`ladi. Ba`zan qo`shma ot tarkibidagi har bir bo`g`in bir so`zga ma`no jihatidan teng bo`lib, ularning o`rnini almashtirib qo`llash o`zbek tilidagi yangi qo`shma otlarni hosil qiladi. Bu o`yindan boshlang`ich sinflarning savod o`rgatish davridan boshlab, o`rta maktablarning yuqori sinflarida ham foydalanish mumkin. O`yinni boshlashdan oldin o`qituvchi quyidagi namunani xattaxtaga yozib tushuntiradi.

Gulnor - Norgul, Urchuq - Chuqur.

O`quvchilar bilim darajasiga qarab quyidagi so`zlarni topishi mumkin.

Alisher –Sherali ,

Gulchehra - Chehragul .

Xoldona –Donaxol

Mehrnoz - Nozmehr .

To`raboy –Boyto`ra

Guldasta – Dastagul .

Oyshahar – Shaharoy kabi.

Toshto`xta- to`xtatosh.

Oybahor- Bahoroy.

Joylarni almashtirish o`yini.

Bu o`yinni alifbegacha bo`lgan davrda va undan keyin ham o`tkazish mumkin. O`quvchilarning sinchkovligini, e`tiborini oshiradi. Bolalarni harflar va tovushlar ustida o`tkaziladigan o`yinlarga tayyorlaydi. O`yinga 10- 15 o`quvchi qatnashadi. Barcha o`quvchilar bir qator bo`lib turishadi. Oralaridan biri boshlovchi bo`ladi. Boshlovchi barcha o`quvchilarni 30 soniya davomida kuzatib orqaga o`giriladi. Shu davrda bolalardan ikkitasi o`z joylarini almashtirishadi. boshlovchi o`quvchi o`quvchilarga yuzlanib kimlar joyini almashganliklarini aytadi. Agar to`g`ri aniqlasa joylarini almashgan o`quvchilardan biri boshlovchi bo`ladi. Yangilishib aniqlay olmasa, yana o`zi boshlovchi bo`lib qolaveradi. ⁴

“PAR ETDI” O`YINI

Bu o`yinni quvnoq daqiqada o`tkazish mo`ljallangan. «Par etdi» o`yini o`qituvchi boshchiligida o`tkaziladi. O`qituvchi qush va boshqa uchadigan narsalarning nomini aytadi, bolalar **«par etdi, par etdi»** deb qo`llarini baland ko`tarib pastga tushiradilar. O`yin o`rindan turgan holatda o`ynaladi. Qushdan boshqa narsa nomi aytilganda bolalar cho`kkallab o`tirib turadilar va ketdi, ketdi deb aytadilar. Bu o`yin bolalarni zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka o`rgatadi. **‘R’** tovushi talaffuzida qiynaladigan bolalar uchun ham juda foydali. Qushlar turini bilib olishlarida, lug`at boyliklarining o`sishida katta ahamiyatga ega. O`yin alifbegacha bo`lgan davrda o`tkazilib o`quvchilarni kerakli so`zlarni matndan ajratib olishga o`rgatadi va kelgusidagi grammatik o`yinlarga tayyorlaydi.

“KIM SO`Z TOPADI” O`YINI.

Bu o`yin qatorlararo musobaqa tarzida o`tkazilishi ham mumkin. G`olib qator rag`batlantiriladi. Sinf bolalari to`rt guruhga bo`linadi. Har biriga alohida topshiriq beriladi.

1- guruh

2-guruh

3-guruh

4-guruh

⁴ «Bilimdon» o`quvchilar uchun oylik jurnal. 2006-yil

<i>Osh</i>	<i>bosh</i>	<i>Obbo</i>	<i>Bino</i>
<i>Ol</i>	<i>tosh</i>	<i>Bobo</i>	<i>havo</i>
<i>Ot</i>	<i>shoh</i>	<i>Dono</i>	<i>navo</i>
<i>Og`a</i>	<i>bos</i>	<i>Momo</i>	<i>sado</i>
<i>Opa</i>	<i>son</i>		

Yuqoridagi o`yinda har bir guruh “O” tovushi turli o`rinlarda kelgan bir va ikki bo`g`inli so`zlar topishadi. 1- guruh so`z boshida, 2-guruh so`z o`rtasida, 3-guruh so`zning ikkala bo`g`inida, 4-guruh esa so`z ohirida kelgan misollarni topishadi. Ushbu o`yinni berilgan “ N, n” harfi ishtirokida ham o`tkazish mumkin. Sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linadi. Berilgan” N,n” harfi ishtirokida o`qituvchi har bir guruhga alohida topshiriq beradi.

1-qator	2-qator	3-qator
<u>N</u> harfi so`z boshida kelgan so`zlar topadi.	N harfi so`z o`rtasida kelgan so`zlar topadi.	N harfi so`z ohirida kelgan so`zlar topadi.
non	xona	osmon
nega	sana	Oson
narvon	ona	elkan
norin	angishvona	xotin
nay	otxona	otin
noma	chana	tutun
nina	yana	butun

Bu o`yin “Alifbe”dagi barcha tovushlarni o`rganish davomida o`tkaziladi. U o`quvchilarning topqirligi, zukkoligi va hozirjavobligini o`stiradi. Lekin o`quvchilar bu so`zlarni yozolmaydilar. Alifbening dastlabki davrlaridan kiritlsa, bolalar keyingi darslarda faol bo`lib qolishadi. O`quvchilar yozish va o`qishni bilib olganlaridan keyin uni xattaxtaga va daftarlariga yozdirish mumkin.

“TOPA OLASIZMI?” o`yini.

O`qituvchi o`rganilgan va o`rganilmagan harf va bo`g`inlar ishtirok etgan bir necha so`zni kattalashtirib yozilgan nusxalarini sinf xattaxtasiga ilib qo`yadi.

O`quvchilar so`zlar tarkibidan o`rganilgan harf va bo`ginlarni topib xattaxtaga yozadilar. Bu o`yinni alifbe davrining birinchi -ikkinchi bosqichlarida o`tkazish yaxshi natija beradi. Chunki shu vaqtda o`quvchilar tovush va harflar bilan yaqindan tanishib boradi. Ular o`qish va yozish ko`nikmalarini egallay boshlaydi.

“O`QIY OLASIZMI” o`yini.

O`qituvchi xattaxtaga karton qog`ozga yozilgan ola, oila, Noila so`zlarini osib qo`yadi. 5-6 o`quvchiga so`z o`qitilgach, so`zlar bo`g`inlarga bo`linib **L** harfining o`rni ko`rsatiladi. So`zlarni bo`g`inlab o`qishda har bir bo`g`in bitta qarsak bilan ko`rsatiladi.

o-la

o-i-la

No-i-la

--	--	--

--	--	--	--

--	--	--	--

Bu o`yinni yana bir qator tovushlarni o`rgatish jarayoniga tadbqiq qilsa bo`ladi. O` harfini o`rganganda Mo`min, o`roq, o`tkir, ro`mol, o`rdak, to`ti, to`lqin, so`zlarini o`rgatish barobarida “o`qiy olasizmi” o`yini o`tkazish mumkin.

SO`Z TOP O`YINI. (DIDAKTIK O`YIN.)

Omon, makaron, momiq kabi so`zlarni o`qituvchi aytadi. O`quvchilar kesma bo`g`inlardan berilgan so`z tarkibidagi m harfi qatnashgan bo`g`inni topadilar: ma-, -mon, -mo, -ma, -mo`. Shu bo`g`inlar asosida yangi so`zlar tuzish topshiriladi.

O`quvchilar topish mumkin bo`lgan so`zlar.

-ma

-mon

-ma

-mo

mana

omon

nima

omonat

mashina tomon

naima

momo

Malika kamon

olma

xurmo

SIRLI KATAKLAR O`YINI

O`qituvchi ko`rgazmani ko`rsatib, kerakli harflarni qo`yib so`zlarni o`qishni aytadi. Bunday ko`rgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor. Kitobning sahifalarida o`rganilayotgan tovush va harf bilan bog`liq narsa – buyumlarning rasmi berilgan. Shu rasmlarning ostiga katakchalar ilova qilingan. Katakchalar soni harflar soniga teng bo`lganligi o`quvchilarning o`yinni to`g`ri bajarishiga yordam beradi.

Bu o`yinni uyushtirishda o`quvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi.

“So`zni tuzib yoz” o`yini.

Bu o`yin ma`lum bir tovush va harf haqida o`quvchilar bilim olganlaridan keyin o`tkaziladi. O`qituvchi tomonidan o`rganilgan tovush qatnashgan so`zlarni xattaxtaga yozma harflar bilan yozib qo`yiladi. O`yin ishtirokchilari bu so`zlarni kesma bo`g`inlar yordamida xattaxtaga terib chiqadi. O`qituvchi aytgan tovush so`zning qaysi o`rnida kelayotganini aniqlaydilar. O`tilgan *L,l* harfi haqidagi bolalarning bilimini mustahkamlash uchun *oila, opa, ana, tola, Lola, Ali*, so`zlarini yozib qo`yadi. O`quvchilar shu so`zlarni kesma bo`g`inlar yordamida xattaxtaga terib *l* tovushi so`zning qayerida kelayotganligini aniqlaydi. *D ,d* tovushi va harfi o`tilganda *Odil, Madina, Dildora, dala, dada, adab* so`zlari ustida ham shunday o`yin uyushtirish mumkin. ⁵

“Bo`g`inlardan so`z tuzish” o`yini.

Xattaxtaga yozma harflar bilan *oila, ona, ana, tola, Lola, Ali* so`zlari yozib qo`yiladi. O`quvchilar kesma bo`g`inlar yordamida shu so`zlarni yozadilar. *L*

--	--	--	--	--	--	--	--	--

tovushi soʻzning qayerida
kelayotganini

aniqlaydilar. *L* tovushi qatnashmagan soʻzning aralashtirilib berilishi oʻquvchilar diqqatini orttiradi. Bunday oʻyinlarni boshqa harflarni oʻrganish davomida ham qoʻllash mumkin. *D* harfini oʻrganish jarayonida *Odil, Madina, Dildora, dala, dada, odob* singari soʻzlarni kesma boʻgʻinlar yordamida yozish mumkin. Birinchi boʻlib yozib boʻlgan oʻquvchi oʻyin gʻolibi hisoblanadi va ragʻbatlantiriladi.

“Kun va tun” oʻyini.(K tovushi.)

Oʻqituvchi *uka* soʻzini alohida yozib, bolalarga: “Soʻzni koʻrib olib, koʻzingizni yuming”, - deydi va *u* harfini *a* harfi bilan almashtirib: Endi koʻzingizni oching, soʻzda qanday oʻzgarish boʻlganini ayting ; - deydi. Bolalar *u* harfi *a* harfi bilan almashtirilganini natijada soʻz maʼnosi oʻzgarganini, aka soʻzi paydo boʻlganini aytadilar. Bu oʻyin 1-2 marta oʻtkazilgach soʻzlarning soni koʻpaytirilishi, murakkablashtirilishi mumkin. *bola- bolgʻa, koʻkat –koʻmak, sovuq- tovuq.* Kun va tun oʻyinini har xil shakllarda oʻtkazish mumkin.

“Soʻz tuz” oʻyini.

Oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilarga mos boʻlgan qoʻlda ishlashga qulay boʻlgan buyum (kichik kartochka) tanlanadi. Oʻqituvchi soʻzning birinchi boʻgʻinini aytib qoʻlidagi koptokchani birinchi oʻquvchiga beradi. Masalan : ol. Koptokchani olgan oʻquvchi xohlagan gap boʻgʻinini qoʻshib soʻz hosil qiladi. : - ta. Olma. Keyin novbatni ikkinchi oʻquvchiga beradi. Koptokchani uning qoʻliga berish bilan soʻzni davom ettirish imkoniyatini unga topshirganini bildiradi. – xon.

Olmaxon oʻquvchi tomonidan xattaxtaga tuzilgan soʻzning andozasi chiziladi.

d	-	l	-	la
a		a		r

Harflarni tanlab soʻz tuz.

Xattaxtaning oldingi qismiga bir hil kattalikdagi harflar kartatekasi terib qoʻyilgan. Ularda aralash berilgan harflar ishtirokida *Lola*, *bobo*, *kitob*, soʻzlarini tuzish talab qilinadi. Ushbu harflar uch hil rangdagi kartonga yoziladi. Harflarni endi tanib olayotgan oʻquvchilarga moʻljallanadi. Oʻquvchilar dastlab oʻqituvchi topshirigʻiga asosan 1-bola *yashil* rangdagi, 2-oʻquvchi *sariq* rangdagi 3-oʻquvchi koʻk rangdagi; harflarni tanlaydi. Oʻzlari toʻplagan harflarni maʼlum bir tartibda joylashtirib chiqib

--	--	--	--

--	--	--	--

--	--	--	--	--

soʻzlarini yozadi. Baʼzan xattaxtaga chiqqan oʻquvchi soʻzni tuza olmasa, oʻz qatoridan boshqa oʻquvchi chiqib toʻgʻirlashi mumkin. Bu oʻyin oʻquvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi.

Boʻgʻinlarni

aniqlash

oʻyini.


Bu oʻyin Respublikamiz maktablari boshlangʻich sinf oʻqituvchilari orasida keng tarqalgan. Alifbening dastlabki kunlaridan boshlab oʻqituvchi bolalarni soʻzni boʻgʻinlarga ajratishga oʻrgatadi. Buning uchun oʻpkadan kelayotgan har bir havo oqimining bir zarb bilan chiqishidan hosil boʻlgan tovushlarni ajratib talaffuz qiladi va bittadan qarsak chaladi.

Ol-ma, ol-ma –xon, ol –cha , tul- ki, i –lon, ik-ki, oy- mo- mo, ki-tob, mak-tab-ga. Bu oʻyin alifbening birinchi bosqichida uzluksiz oʻtqazib borilsa, bolalar organib olishadi. Oʻzlari maktabda ham, uyda ham bu mashgʻulotlarni sevinib bajaradi. Baʼzan oquvchilar bir tovushdan iborat tovushlarni boʻgʻinga boʻlishda

ikkilanib qoladi. O`qituvchi unli va undosh tovushlarni tushuntiradi. Unli tovushlarning bo`g`in hosil qilishdagi roli ko`rsatiladi. O`yinni o`tqazish uchun unli tovushlar orasiga **t** tovushi aralashtirilib qo`yiladi. O`quvchilar unli tovushlar orasidan' **t** tovushini ajratib oladi. Unli tovushlarning og`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramasligini aytadi. **t** tovushi esa og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchraydi va shovqin hosil qiladi. Ana shu jihati bilan **u** unli tovushlardan farq qiladi.

Jumboq rasm asosida matn tuzish.


O`qituvchi Alifbening 13-betidagi *ana, non, ni, in* kabi so`z va bo`g`inlar asosida tuzilgan krossvord- jumboqda bitta gap, ikkita so`z mavjudligini aytadi. Krossvorddagi strelka chiziqlar so`zni to`g`ri topib o`qishga yordam berishi tushuntiriladi. Bolalar krossvorddan *ona, ana, nina* kabi so`zlarni o`qiydilar. Ularni bir butun holda o`qisak o`quvchilarga tanish bo`lgan *ona, ana nina* gapi hosil bo`ladi. Ushbu o`yinni davom ettirib to`g`ri chiziqlar bo`yicha bo`g`inlarni qo`shib o`qisak yana qanday so`zlar hosil bo`ladi? O`quvchilar birin –ketin javob beradi. *Ni+na ona, ana*, sozlari hosil bo`ladi. *Nina* so`zini o`qishda o`qituvchi yordamlashib turadi.



“Bo`g`inlarni birlashtir” o`yini.

O`yinni uyushtirishda “Alifbe” va “Ona tili” kitobida berilgan bo`g`inlardan foydalaniladi. O`yinni butun sinf bilan yoki ikki o`quvchi, ba`zan to`rt o`quvchi ishtirokida uyushtirish mumkin. Buning uchun oldindan yigirma dona kichik kartochka tayyorlab qo`yiladi. Har bir kartochkadagi bo`g`inlardan o`ntasi kichik harf bilan, o`ntasi katta harf bilan boshlangan bo`lishi zarur.

Kartochkalar aralashgan holda o'quvchilarga tarqatiladi. O'yinda ishtirok etuvchilardan biri katta harf bilan boshlanuvchi bo'g'inni xattaxtaning quyi qismiga qo'yadi. Ikkinchi o'quvchi shu bo'g'inga mos kichik harf bilan boshlangan bo'g'inni yoniga qo'yadi. Natijada sinf o'quvchilaridan birining ismi kelib chiqadi. O'yin davomida bo'g'inni topib, o'z joyiga qo'ya olmagan o'quvchi o'z o'rnini bo'shatadi. Bu o'yin orqali o'quvchilar atoqli otlarning, xususan kishi ismlarining bosh harf bilan boshlanishini bilib olishadi. O'yindan namunalar:




O'yin oxirida quyidagicha kishi ismlari hosil bo'ladi.

- | | | |
|-----------|-----------|----------|
| 1. Qirmiz | 3. Dilbar | 5. Akbar |
| 2. Nodir | 4. Shodi | 6. Rasul |

“Bir bo'g'ini mendan qolgan bo'g'ini sendan” o'yini

Ushbu o'yin o'quvchilarning diqqatini va ziyorakligini oshiradi. O'quvchi berilgan bo'g'inni o'qib, unga qanday tovush yoki bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish ustida faoliyat ko'rsatadi. O'yinning qiziqarliroq bo'lishi uchun so'z markazida turuvchi bo'g'in qavs ichida yoki aylana ichida berilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchining qiziqishi oshadi. Bo'g'inni tanlashda o'qituvchi eng kamida ikki uch so'z tashkil qilish mumkin bo'lsa bo'g'inni tavsiya etishi zarur. Buni o'qituvchi oldindan bilishi, o'yin shartlarini bajarish usullarini

o`qituvchining o`zi mukammal bilishi kerak. Keyinchalik o`quvchilarning o`zlari ham shunday jadval tuzishiga o`rgatiladi.



“Bo`g`inlardan gap tuzish” o`yini.

Bu o`yinni uyushtirishda o`quvchilarga bo`g`inlar beriladi. Tavsiya etilgan bo`g`inlar ishtirokida so`z va gaplar tuziladi. Ushbu o`yinni uyushtirishda bo`g`inlar majmuasini butun sinfga tavsiya etish ham mumkin. Bolalarning qiziqishlarini oshirish maqsadida o`quvchilarni ikki guruhga ajratib har bir guruhga alohida bo`g`inlar beriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez bajarsa o`sha guruh g`olib hisoblanadi. Bo`g`inlar albatta tartib bilan emas, aralash holda berilishi lozim. O`yinni soddalashtirish maqsadida gapni qaysi bo`g`indan boshlash alohida rangda ko`rsatiladi.

Topshiriqlar.

I.

--

h
a


i
sh

c
har


t
a

i
sh


Ish ishtaha ochar



Bilim baxt keltirar.



Maktab –bilim o`chog`i.




IV.

Ona bilan bola- gul bilan lola.


“BO`G`INLAR BEKATIDAN O`TIB OL” O`YINI.

Bu o`yin o`quvchilarning bo`g`in ustida ishlash ko`nikmasini rivojlantiradi. Bolalar so`zlarning bo`g`inlardan tashkil topishini har bir bo`g`in hatto tovushning ham ma`lum bir vazifasi borlagini bilib oladi. Bu o`yinining muhim tomoni shundaki, markazdagi bo`g`in bir necha so`zlarning hosil bo`lishiga asos bo`lib xizmat qiladi. O`quvchilar har bir bo`g`inga alohida e`tibor berish ko`nikmasini egallab olishadi. O`yinni butun guruh bo`yicha ham, guruhlar o`rtasida ham o`tkazish mumkin. Butun sinf ishtirokida o`tkazilganda xattaxtaning o`rtasiga bir bo`g`in doira ichiga yozilib shu bo`g`inning oldidan qo`shiladigan bo`g`inlar o`qituvchi tomonidan ko`rsatiladi. Bolalar uni bo`g`in bekatidagi bo`g`in bilan birlashtiradi. Keyin bekatning orqasidan bir bo`g`in qo`shib yangi so`z hosil qiladi. U quyidagicha o`tkaziladi.

berilishi



bajarilishi





za

xa

Fa

ra

O`yin guruhlar o`rtasida o`tkazilganda o`quvchilar guruhiga bittadan bo`g`in beriladi. Agar bolalar faol bo`lsa bekat oldidan bo`g`in berilmaydi. Masalan bir guruhga -li, ikkinchi guruhga -di bo`g`ini berilganda o`quvchilar uni quyidagicha bajarashi mumkin.



Qaysi guruh belgilangan vaqtda ko`p so`z topsa g`olib hisoblanadi.

2.2. O'qish darslarida qiziqarli mashg'ulotlardan foydalanish

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bilim olishga qiziqтира olish, yaxshi tarbiyalay olish muhim. Buning uchun ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'rinlidir. Ta'limiy o'yinlar bolalarni ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularni qiziqib o'zlashtirishlariga, ma'naviy barkamol bo'lishlarida ahamiyatlidir.

«Harfni esda saqlash» o'yini

Bu o'yinning asosiy maqsadi o'quvchilarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, esda saqlab qolishga o'rgatish hisoblanadi. O'qituvchi o'yinning o'tkazilishi haqida tushuncha beradi va u oldingi darslarda o'rganilgan O, A, D, F harflari ishtirok etgan rasmli kartochkalarni tarqatadi. O'zida esa O, A, D, F, harflari yozilgan kartochkalarni olib qoladi. O'quvchilarga olcha, olma, ot, anor, ari, archa, ayiq, delfin, daraxt, fil, fontan rasmlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchi stolga O harfli kartochkani qo'yadi. O'quvchilar shu harfga mos rasmli kartochkani harf yoniga qo'yadilar va rasm nomini xor bo'lib aytadilar. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yin keyingi darslarda yangi o'tilgan harflar bilan o'tkaziladi. O'yinga yetti-sakkiz minut vaqt ketadi. O'yinni boshqa turli variantlarda ham o'tkazilishi mumkin. O'yin orqali o'quvchilar harflarni xotirasida yaxshi saqlab qoladi.

O'yinning boshqacha varianti

O'qituvchi o'quvchilarga istalgan harfni, masalan, A va O harflarini ko'rsatadi. O'quvchilarga unli harfga bog'lanadigan bo'g'in topib so'zlar tuzdiriladi. Bu ishlar og'zaki yoki yozma bajarilishi mumkin. Masalan:



«So'zni tez o'qish» o'yini

Bu o'yin orqali o'quvchilarda so'zlarni tez o'qish ko'nikmalari o'rttiriladi. O'qituvchi so'z yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Har bir o'yin ishtirokchisi o'ziga ajratilgan kartochkalarni olib, navbati bilan o'qiydi. Agar o'quvchi kartochkadagi so'zni noto'g'ri o'qisa, boshqa kartochka olmaydi. Qaysi o'quvchi so'zni to'g'ri o'qisa, shu o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi. Masalan, sinfda 24 ta o'quvchi bo'lsa shulardan birinchi kuni 12 nafar o'quvchi qatnashadi, ya'ni o'qituvchi 12 o'quvchiga kamida 24 ta kartochka tayyorlaydi.

Masalan:

O	N	N	Ol
na	on	ok	im
V	G	M	M
atan	o'zal	aktab	ana

Qaysi o'quvchi so'zlarni to'g'ri va tez o'qiy olsa o'sha rag'batlantiriladi. So'zlarni o'qish uchun 6-8 daqiqa vaqt beriladi.

O'yinning boshqacha varianti

O'qituvchi bir necha: kabutar, lola, o'rik, banan va boshqa bir qancha so'zlarga oid rasmlarni tayyorlaydi. O'qituvchi lola rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar qo'llaridagi so'zlar yozilgan kartochkalardan «lola» deb yozilgan kartochkani topib ko'rsatadi.

Masalan:


Lola –



Kabutar –



O'rik –



Banan –



Xullas, savod o'rgatish davrida ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning:

- bilim olishga qiziqishlarini oshiradi;
- ma'naviy barkamol bo'ladi;
- tovush, bo'g'in va so'zlarni tez o'qishga o'rganadi;
- hozirjavob, topqirlikka o'rganadi.

Savod o'rgatishda tovush va harflar haqidagi she'rlardan foydalanish

Savod o'rgatish darslarini rang-barang va qiziqarli tashkil etish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Bu davrda o'qituvchi faqat «Alifbe» darsligiga suyanib qolmasligi kerak. Chunki «Alifbe»ni o'quvchi har kuni uyida ham bir necha marta ko'radi. Bu davrda tovushlar va harflar haqidagi she'rlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bolalarning sevimli shoirasi Kavsar Turdievaning «Sehrli harflar oroli» turkumidagi she'rlari juda qo'l keladi. Shoiraning ajoyib she'rlaridan namuna keltiramiz:

Bo'ling harfga hurmatda

«Alifbe»da nechta harf,
O'yla, aqling qilib sarf!
Go'yo ko'zgu, burni bor,
Har bir harfning o'rni bor.

Adashtirmagin zinhor,
Savod senga bo'lsin yor.
Bir harf o'zgarsa agar,
«Ko'r» to'satdan bo'lar «kar».


Savod o'rgatish davrida yana «Bilimdon» jurnalidan ham unumli foydalanish mumkin. Jurnalning sahifalarida tovush va harflarning xususiyatlari haqida qiziqarli she'rlar, rasmlar berilgan.


Masalan: Lobar bozorga bordi, **L**
 Layloga lenta oldi. **l**
B Bog'bon boqqa boradi,
b Bog'da behi teradi.
 Kosa–kosa suv ichdim, **K**
 Sohilni uzoq kechdim. **k**
J Jo'ja bo'ladi otim,
j Hali nimjon qanotim.

Demak, savod o'rgatish davrida tovushlar va harflar haqidagi qiziqarli she'rlardan foydalanish o'quvchilarning tovush harflarni, bo'g'inlarni, so'zlarni oson va qiziqib o'zlashtirishlarida muhim vosita bo'ladi.



«Hayvonlar» krossvordi






1. Afsonaviy qush.
2. Asalxo'r hayvon.
3. O'rmon hayvoni.
4. Multfilm qahrarmoni... pux
5. Tez chopadi.
6. Sudralib yuradi.
7. Ayyor....
8. Qushlardan biri.
9. Hayvonlar qiroli.

O'quvchilarning fikrlash, aqliy va bilish qobiliyatini faollashtirish, so'z boyligi, qiziquvchanligini oshirish, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni farqlay olishga o'rgatishda bu o'yin nihoyatda qo'l keladi. Undan 2-sinf o'qish darsining «Quyuncha va ayyor tulki» mavzusini o'tganda foydalanish mumkin. O'yin yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng mustahkamlash bosqichida amalga oshiriladi.

Sinf o'quvchilari 4 guruhga bo'linishadi. Har bir guruhga aynan bir xil krossvord beriladi. O'quvchilar boshqotirmaning birgalikda hamjihat, hamfikir bo'lib yechishadi. Topshiriqni to'g'ri va tez bajargan guruh yuqori ball oladi. Undan tabiatshunoslik darsining «Uy hayvonlari», «Yovvoyi hayvonlar» mavzusini o'tganda, ona tili darslarida esa mustaqil ish sifatida foydalanish o'rinlidir. Topshiriqqa ko'ra o'quvchi daftariga 9 ta so'zdan iborat «Hayvonlar» krossvordidan gap tuzishadi. Har bir o'quvchi yoki guruh albatta, bajargan ishiga qarab baholanadi. Bu o'yin o'quvchini ijodkorlik bilan birga fikrlashga o'rgatadi. To'la savodxon bo'lishiga yordam berib, lug'at boyligini oshiradi.

«Xotira mashqi» (Sonli topishmoq)



Mazkur o'yin o'qish darsida «Ajdodlarimiz tarixi», «Vatanimiz o'tmishi», «Kitobga ixlos», «Sohibqiron bobomiz», «Mirzo Ulug'bek», «Alisherning yoshligi», «Shum bola», «Bolalik», matematika darsida esa «Ikki xonali sonlarni xona qo'shiluvchilarga ajratish» kabi mavzularining mustahkamlash bosqichida (30-35-daqiqalarda) bajariladi. Fanlararo bog'lanish asosidagi mashg'ulotlarda ham ushbu o'yindan foydalanish yaxshi samara beradi. Buyuk allomalarning tug'ilgan yillarini va tarixiy sanalarni yodda saqlashga ham «Xotira mashqi» yordam beradi.

O'yin qoidasi: Matematika darsida kartochkaga yozilgan 5 ta raqam ko'rsatiladi. O'quvchi ushbu raqamlarni xotirasida saqlab, keyin aytishi kerak. Sonlarni to'liq va bexato aytgan o'quvchi yuqori ball oladi.

«So'ziardan gap tuzish» oyinidan ona tili darslarida «Gap», «Ega va kesim», «So'z turkumlari», «Ot», «Sifat», «Son», «Fe'l» kabi mavzularini o'tish jarayonida, mashg'ulotning mustahkamlash bosqichida (30 daqiqadan so'ng) foydalanish mumkin. «Gap» va «Ot» mavzularini o'tganda o'quvchilardan gap tuzish, tuzgan gaplardan otni, «Ega va kesim» mavzusida esa bosh bo'laklarning tagiga chizish kerakligini aytadi. O'yin davomida o'quvchilar «Son» mavzusida

tuzgan gaplaridan sonni topishni,-«So'z turkumlari» mavzusida gaplarni tahlil qilishni o'rganadilar. Mazkur o'yinlardan «KVN», «Bilim ring», «Mujassam dars», «7x7» musobaqalarida, namunali darslar o'tganda foydalanish mumkin.

«So'zlardan gap tuzish» o'yini o'quvchilarni fikrlashga, topqirlikka undaydi. Darsga qiziqishini, intiluvchanligini oshirib, gap tuzish malakasini mustahkamlaydi, mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faolligini, aqliy qobiliyatini, mustaqilligini, savodxonligini, hamda og'zaki va yozma nutq madaniyatini o'stiradi, olgan bilimlarini mustahkamlaydi. O'yinning borishi: Sinf o'quvchilari guruhiarga bo'linadi. Har bir guruhga bir xil o'yin sharti beriladi. Shuningdek, uni o'quvchilarga mustaqil ijodiy ish sifatida ham berish mumkin.

«Bu qanday so'z?» Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, dars oxiriga kelib zerika boshlaydilar. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini mavzuga doir turli qiziqarli o'yinlarga tortish ancha samaralidir. Ular, ayniqsa, rasmlı topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Savod o'rgatish davrida bu kabi didaktik o'yinlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Aslida fikrashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydigan ushbu o'yin davomida ular so'zlarning ma'nosini yanada yaxshiroq tushunadi, yozma va og'zaki nutqi ona tili «So'z va gap» mavzusini mustahkamlash bosqichida foydalansa bo'ladi. «Kim topqir?» o'yindan «Gap», «So'z» «So'z tarkibi» mavzularini o'tganda, o'qish darslarida esa mavzularni mustahkamlash bosqichlarida foydalanilsa, samarasi ijobiy bo'ladi. Masalan: «O'zbekiston» so'zini olaylik. Bu so'zdagi harflar o'rnini almashtirib, yangi so'zlar yasash mumkin. Masalan: Zebo, son, kon, to'n, nok, bek, nos, biton, tik, nozik, bo'z, kez, so'z va hokazolar. «Rasmlı topishmoq» Savod o'rgatish davrida, ona tili darslarida yangi mavzuni tushuntirganda, saboqni mustahkamlash bosqichida undan foydalanish o'rinlidir. Bolalar rasimga qarab tasvirlangan narsaning nomini ketma-ketlikda aytib, so'zlarni bir-biriga bog'lab gap tuzishadi.

Oy + gul qo'l + qop to'qidi. Oygul qo'lqop to'qidi. Yoki: Sha + lola hashar qildi. Shalola hashar qildi kabi.

O'yin o'quvchining nutqini, topqirligini rivojlantiradi. Bola bunday rasmlarga juda qiziqadi va unga bor diqqatini jalb qiladi. Tasviriy san'at darslariga bo'lgan qiziqishi yanada ortib boradi.

«Aql charxi»

Bu o'yindan 1-4-sinflarning matematika darslarida foydalanilsa ayni muddao bo'ladi.

O'yin o'quvchining nutqini, topqirligini rivojlantiradi. Bola bunday rasmlarga juda qiziqadi va unga bor diqqatini jalb qiladi. Tasviriy san'at darslariga bo'lgan qiziqishi yanada ortib boradi.

O'tilgan mavzunu so'rash davomida, yangi mavzuni tushuntirganda, mustahkamlash bosqichida, «Bilimdonlar bellashuvi»da, «10 ichida qo'shish va ayirish», «Ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish», «100 ichida qo'shish va ayirish» mavzularini o'tganda «Aql charxi»dan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yin o'quvchilarni teran mulohaza yuritishga chorlaydi. Fikrlash qobiliyatini, hisoblash malakalarini o'stirishda uning ahamiyati kattadir.

XULOSA.

O`quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg`ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha bolalar o`qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma`lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o`zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o`zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o`quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko`rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko`plab o`quv materiallarini hayolidan o`tkazadi. O`xshash hodisalarni taqqoslaydi. O`zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O`qituvchilarning tayyor holda bergan ma`lumotida esa o`quvchi fikrlash faoliyati to`la ishga kirishmasdan to`g`ri javobni o`zlashtirib oladi. O`xshash hodisalarga duch kelishi bilan o`qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta`lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o`quvchi egallashi lozim bo`lgan materiallar ancha murakkab bo`lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta`lim standarti va ta`lim tizimi o`qituvchilar oldiga o`ta mas`uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o`tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg`ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o`quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo`lgan bilimlar hajmini, o`zida hosil qiladigan ko`nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o`z navbatida o`quvchining mashg`ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o`quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug`lari kundan-kun o`sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko`rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro`yobga chiqayotganligining guvohi bo`ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o`z bolasining qo`l-oyoq va gavda harakatlarini o`yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati

o`yin bilan bog`liq bo`ladi. Asta-sekin o`yin yosh bola hayotining asosiy mashg`ulotiga aylanadi. O`yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o`yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta`sir ko`rsatadi. O`yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

O`yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo`lish, jasur, qat`iyatli bo`lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o`yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o`yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko`rishini bo`lsa-da, uning o`ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o`yinni o`z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o`yinlar emotsional bo`lib, bolani o`ziga rom qilib oladi. Bola o`yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o`rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o`yinlari mazmuniga ko`ra o`yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo`linadi. Bu o`yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o`yinlar esa bolaga ta`lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Didaktik o`yinlar tarbiyachilar va maktab o`qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o`yinlar bog`chalarning katta guruhlaridagi bolalarga va maktab o`quvchilariga mo`ljallanadi. O`yin orqali bola jamoani tushunadi. O`zi bajarayotgan mashg`ulotga nisbatan ongli munosabatda bo`ladi. Har bir mashg`ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O`yinda ilg`orlikka, g`alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o`rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o`yin bilan band bo`lib, erkin faoliyat ko`rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg`ulotlarga o`z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o`yin bilan bog`liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o`qituvchilar buni hisobga olib, darslarga

o`yin elementlarini kiritishimiz va undan ta`lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Bugun maktabga ilk bor qadam qo`ygan o`quvchining kechagi mashg`uloti o`yin edi. Bolada boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan materiallarni o`zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga mo`ljallangan bilimlarning o`zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o`rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. “Tasavvur qiling, o`quvchi ma`lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o`quvchisi bo`ladi. Uning vazifasi o`zgaradi. Bir kecha- kunduzda o`rtacha 4 soat ta`lim oladi. Kechagi o`yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o`qituvchi bilan muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo`lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga “vaqti yo`q” bo`lsa, o`sha o`quvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o`quvchilarga aylanadilar. O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan fidokor o`qituvchi ana shu paytda o`quvchilarni qo`lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o`quv mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otadi.”⁶

Chunki kichik maktab yoshidagi o`quvchilar o`yinlarni juda berilib bajaradi va o`zi bajarayotgan ishidan katta qoniqish hosil qiladi. Dars jarayoniga o`yin elementlarining kiritilishi bolaning kundalik hayotida orttirgan ko`nikma va malakalarining ishga tushishi natijasida bola o`zini juda yengil sezadi, erkin harakat qiladi, bir oz dam ham oladi. Ilg`or o`qituvchilar bolalarga bu xususiyatlaridan kelib chiquvchi darslarni tashkil qilib ana shu imkoniyatdan samarali foydalanadi. Natija, albatta yomon bo`lmaydi. Negaki, o`quvchi qiziqish bilan ongli ravishda darslarga qatnashsa, mashqlarni bajarishga faol ishtirok etsa, berilayotgan bilimni to`la o`zlashtirib oladi. Keyingi darslarda o`rganiladigan

⁶ A Umarova . O`yin musobaqa darsi “ Boshlang`ich ta`lim -1992, 1-son , 48-bet.”

bilimlarni egallashda ham o`quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg`ulotlarning zerikarli bo`lishiga olib keladi. Bunday darslar o`quvchilarda hech qanday qiziqish uyg`otmaydi. Pirovardida bu o`quvchilar faolligining susayishiga olib keladi.

Dunyoning ilg`or mamlakatlari tajribasida sinab ko`rilgan va bugun o`qish tizimimizdan mustahkam o`rin olgan ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borayotgan bizning mamlakatimizda ta`lim-tarbiyaga katta e`tibor berilmoqda. Qisqa vaqt ichida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta`lim to`g`risida qonun” ning qabul qilinishi va uning hayotga tadbqiq etilishi, yosh avlod tarbiyasining umummilliy ahamiyatga ega bo`lgan ish darajasiga ko`tarilishi mamlakatimizda xalq ta`limiga ko`rsatilayotgan ulkan g`amxo`rlik hisoblanadi. Ana shunday bir sharoitda barcha fanlar qatori ona tili o`qitilishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki ona tili barcha o`quv fanlarining asosidir. Ona tilini o`rganish bolaga ta`lim berish uni tarbiyalash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so`zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli yozuv ko`nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro`yobga chiqarish o`ta murakkab bo`lib, o`qituvchining xilma-xil o`qitish metodlarini egallashini, o`quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o`rgatishni va har bir mashg`ulotga qiziqitira bilishni taqozo qiladi.

Bolalarning yozuv savodxonligini oshirish uchun uning xotirasida so`zning yorqin tassavurini mustahkamlash, so`z tarkibi va gap bo`laklarini to`g`ri hamda tez farqlash qobiliyatini o`stirish kerak. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar asosan tasavvur qilish orqali fikr yuritadilar. Ona tili qonun-qoidolari, hodisalari mavhum fikr yuritishni taqozo etadi. Shu tufayli ular ko`pincha o`ynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Amaldagi o`quv dasturiga asosan o`yin mashg`ulotlari bugungi darslarning qurilishida tez-tez uchrab turadi. Chunki bolaga berilayotgan bilimni o`yinlar vositasida singdirish quruq qoida yodlash va surunkasiga mashq

qildirishdan qiziqroq tuyuladi va o`tilgan mavzuning mustahkam esda saqlanishiga imkon beradi.

Grammatik o`yinlarni o`tkazish usullari xilma-xil bo`lib, uni maktab o`qituvchilari mukammal egallab olishlari va o`quvchilarning o`zini shunga o`rgatish zarur. Grammatik o`yinlar til materiallarini o`rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu o`yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Grammatik o`yinlar bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. O`quvchilarni tez o`ylashga, mustaqil fikrlab javob berishga, zehnli bo`lishga, har bir ishda tashabbus ko`rsatishga undaydi. Faoliyat ko`rsatishga chorlaydi. Bu mashg`ulotlar bolalarning diqqatini bir yerga to`playdi. O`quvchilarda sog`lom musobaqa ruhini tug`diradi. Bunday didaktik o`yinlar va ularda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchilarda jamoa bilan ishlash, o`ziga va o`z jamoasiga hamda o`zgalarga hurmat-e`tiborda bo`lish xislatlari shaklanadi. O`yin jarayonida ularning muomala madaniyatida ijobiy munosabatlar tarkib topadi. Bu o`yinlar o`quvchilarni faollik ko`rsatish, topqirlik, fahm-farosatli bo`lishga, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga taqbiq eta olishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari «Oq terakmi, ko'k terak?», «Biz qayerga yashirdik, qidirib top», «Tapur-tupur qaldirg'och», «Uchdi-uchdi», «Bahri bayt», «Rang-barang», «Juftmi-toq?» o'yinlarini juda qiziqib o'ynaydilar. Ularni ona tilidan yangi bilim berish darslarida ham qo'llash mumkin.

Ayniqsa, morfologiya, leksikologiya va boshqa mavzularni o'tishda foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, «O'zakdosh so'zlar» mavzusi o'rganilgach, mustahkamlash chog'ida yuqoridagi o'yinlar o'tkaziladi.

Dastlab sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi oldindan uyadosh so'zlar yozilgan qog'ozlarni tayyorlab qo'yadi va o'quvchilarga o'yinning qoidalarini tushuntiradi. 1-guruhga o'zakdosh so'zlardan biri, masalan, bog'ish, paxta, kuy, to'qi kabi so'zlar yozilgan qog'ozlar beriladi. 2-guruhga esa shu so'zlarning o'zakdoshlari bog'bon, bog'cha, bog'i, bog'siz, bog'la; ish, ishchi, ishla, ishli, ishsiz kabi so'zlar yozilgan qog'ozlar beriladi. 1-raqamdagi 2-guruh a'zolari

kuy yozilgan qog'ozni 2-guruhdagilarga ko'rsata turib, «Tapur-tupur qaldirg'och, tanlaganing olib qoch» deb jo'r bo'lib qo'shiq aytishadi. 1-guruh a'zolaridan biri kelib, kuychi, kuyla, kuyli, kuysiz so'zlari yozilgan qog'ozlarni ushlab turgan bolalarni tanlab, o'z guruhiga olib ketishi kerak. Agar ularni to'liq topolmasa, o'zi shu guruhda qoladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Qaysi guruhning a'zolari qolmasa, o'sha guruh yutqazgan hisoblanadi va ball ololmaydi. O'yin so'ngida g'olib guruh aniqlanib, rag'batlantiriladi.

Ushbu o'yinlardan so'z ma'nolarini, ibora mavzularini, morfologiya bo'limidan so'z turkumlarini o'tishda ham foydalanish mumkin, «Rang-rang» o'yini sifatning turlari mavzusini, «Juftmi-toq?» o'yini son mavzusini, «Uchdi-uchdi» o'yini ot turkumlari, fe'l mavzularini mustahkamlashda yaxshi samara beradi.

Biz yuqorida birgina o'yinni namuna sifatida keltirdik. Milliy o'yinlarimizdan oqilona foydalanish esa har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisini ijodkorligiga, mahoratiga bog'liq.

Yuqoridagi o'yinlar bolalaming jismoniy jihatdan barkamol bo'lishi uchungina emas, balki ularni aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarni topqirlikka, tez va to'g'ri fikrlashga o'rgatadi. Guruh bo'lib o'ynaladigan o'yinlar bolalaming maqsadga erishuvi yo'lidagi tadbirkorligini, qat'iyatini ko'rsatishga, jamoat oldida nafaqat o'zi, balki o'rtoqlari uchun ham mas'ul bo'lishga undaydi. Bunday o'yinlar ularni o'tilgan mavzuga qiziqtirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva K va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. T. «O'qituvchi». 1996 yil.
2. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O'qish darslari. (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. O'qituvchi, 2004 yil.
3. Abdullaeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi. 2-sinf Toshkent. O'zbekiston, 2003-yil.
4. G'afforova T, Shodmonov E, Eshturdieva G. «Alifbe»-(«Savod»); «Ona tili», T. «O'qituvchi», 1999- yil.
5. G'afforova T. G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari (O'qituvchi kitobi.) Toshkent. Sharq 2003 -yil.
6. Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi». «O'qituvchi», 2004-yil.
7. Umarova M. 3-sinfda O'qish darslari (O'qituvchi Kitobi.) Toshkent «Ijod dunyosi» 2003-yil.
8. Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi», «O'qituvchi», 2004 yil.
9. Fuzalov S, Xudoyberganova M. «Ona tili» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi» 2003 -yil.
10. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T. «O'qituvchi», 2003- yil.
11. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 1977- y.
12. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T. «O'qituvchi», 1993 -yil.
13. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
14. Mirzaev I. Dars tahlili. T. «O'qituvchi», 1985- yil.
15. Oripov K. Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
16. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T. «O'qituvchi», 1999- yil.
17. Umarova M, Hudoyberganov M. Bayonlar to'plami. T. "O'qituvchi", 1992-yil.
18. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., O'qituvchi", 1985- yil.

19. Qosimova K., Ubaydullaeva. 2-sinfda ona tili darslari. T., "O'qituvchi", 1987-yil.
20. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. T. "O'qituvchi", 1976 -yil.
21. G'afforova T. va b. «O'qish kitobi», 1-sinf, «Shark», 2005-yil.
22. Umarova M. «O'qish kitobi» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi», 2005-yil.
23. Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi» 4-sinf. «O'qituvchi», 2005-yil.
24. Sodiqova M., Usmonova U. O'zbek tilining orfoepik lug'ati. T., «O'qituvchi», 1977-yil.
25. G'ulomova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xusnixatga o'rgatish. T., «O'qituvchi», 1970-yil.
26. Abdullayeva K. Diktantlar to'plami. To'rt yillik boshlang'ich maktablar uchun. T., «O'qituvchi», 1997-yil.
27. **Elektron ta'lim resurslari**
 1. www.ziynet.uz
 2. www.pedagog.uz
 3. www.tdpu.uz

Mundarija

Kirish	3
I BOB. O'qish darslarini tashkil etish usullari	7
II BOB. Savod o'rgatish mashqlarining asosiy turlari va unda o'yin vositalaridan foydalanish	18
Xulosa.....	42
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	48